

METAFORANING LINGVOSTILISTIK XUSUSIYATI (XOSIYAT RUSTAMOVA SHE'RIYATI MISOLIDA)

H. Salixodjayeva ¹, X. Xudoyberdiyeva ²

Annotatsiya:

Maqola Xosiyat Rustamova ijodidagi metaforalar lingvostilistik jihatdan tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: trop, polisemantik so'z, ekspressivlik, metafora, metonimiya.

Kirish

O'zbek tilidagi har bir unurning o'z vazifasi, ma'no doirasi, boshqa unsurlar, birliklar bilan bog'lanish qonuniyatlari mavjud. Ana shu qonunlardan mukammal boxabar bo'lgan, badiy didi, so'z sezgisi va mahorati yuksak ijodkor betakror tasvir, kutilmagan, oxorli badiiy lavhalar, so'z chaqinlarini paydo qila oladiki, kitobxon adibning nafaqat g'oyasi, balki go'zal tilining asiriga aylanadi.

So'z qo'llashning san'at darajasida yoki san'at darajasida emasligini baholash uchun, eng avvalo, so'z, uning ma'nosi va bu ma'noning tuzilishini aniq tasavvur etish lozim. Albatt, so'zning qo'llanishi bilan bog'liq xolda yuzaga chiqadigan qo'shimcha ma'no nozikliklari, mazmun o'zgachaliklari turli tasvir usullari va vositalari orqali reallashishi mumkin.³ Ana shunday vositalar sifatida ko'chimlarni misol qilib keltirishimiz o'rinlidir.

O'zbek tilshunosligida ko'chim turlarining uslubiy jihatlari yoritish masalasi dolzarb vazifalardan biridir. Ushbu maqolamizda metaforaning stilistik imkoniyatlari atroflicha tahlil qilingan.

Adabiyotlar tahlili

Jahon tilshunoslari tomonidan metafora va uning uslubiy xususiyatlari masalasi yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Ingliz tilshunosligida Jorj Lakof metaforalarning uslubiy, badiiy, frazeologik xususiyatlarini o'rgangan eng mashhur olim hisoblanadi. Panter, Blek kabi tilshunos olimlar ham metaforalar bo'yicha bir nechta ilmiy ishlar olib borishgan.

Rus tilshunosligida O.S.Axmanova, A.E.Efimov, M.N.Kojina, D.E.Rozintal, G.L.Abramovich, N.D.Arutyunova, N.D.Bessorabova, A.P.Chudinov, V.K.Xarchenko kabi olimlarning qarashlarida o'z aksini topgan. Hatto, antik davr olimlaridan Arestotel ham o'zining "Ritorika" asarida ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlar haqidagi o'z qarashlarini bayon qilgan.

O'zbek tilshunosligida esa ushbu masala yuzasidan prof. M.Mirtojiyev va I.Shukurov, Z.Tohirov, D.Xo'jayeva; shuningdek, prof. Sh.Rahmatullayev va R.Yunusovlar chuqur ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. G.Qobuljonova esa metafora va uning lingvistik tabiatini alohida monografik planda o'rgangan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolani metodologik jihatdan tahlil qilishda tavsiflash, qiyoslash va struktur tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar

O'zbek tili leksik qatlamining katta qismini polisemantik so'zlar tashkil etadi. So'zni o'ziga xos kontekstda, so'zlar qurshovida ifodalash, voqelikni maxsus ta'riflash asosida troplar hosil qilinadi.

Troplar so'z ma'nolarini turli psinsp asosida ko'chirish usulidir. Ular nutqiy obraz yaratish, ekspressiv, emotsional xis-tuyg'ularni ifodalashning maxsus usullari hisoblanadi. So'z yoki so'z birikmasi turli xil prinsp asosida yangi ma'noga ko'chiriladi. Shunga ko'ra troplarning xilma-xil turlari mavjud: *metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, allegoriya, ironiya, mubolag'a, litota* kabi.⁴

Troplarni qo'llash badiiy nutqimizda yangi mazmundagi yangi so'z birikmalarini vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Ular orasida ekspressivlik-emotsionallikni ifodalashda eng boy va mahsuldor turlaridan biri metafora hisoblanadi.

Metafora (yn.metaphora – ko'chirish). Bir predmetning nomini boshqa predmetga bir tomondan o'xshashligini e'tiborga olib ko'chirish.⁵ Metafora leksik ma'noning taraqqiyotini ko'rsatuvchi til xodisasi bo'lib,

¹ Salixodjayeva Havasxon Zakirjanovna, Namangan davlat universiteti dotsenti

² Xurinis Xudoyberdiyeva, Namangan davlat universiteti doktranti

³ Йулдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик тахлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 49

⁴ Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – Toshkent. "Fan" nashryoti. – B, 22.

⁵ A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent, "O'zbekiston milliy ensklopediyasi" davlat ilmiy nashryoti. – B:63.

u so'zlarning ko'chgan ma'nosi asosida paydo bo'ladi. Ushbu hodisa zaminida qiyoslash natijasida aniqlangan o'xshatish g'oyasi yotadi.

Metafora nutqda ma'lum bir stilistik maqsadlar uchun xizmat qiladi. So'zlarning metaforik qo'llashning asosiy vazifasi nutqning obrazlilik, tasviriylik va ular asosida ekspressivlik hosil qilishdir.

Ana shunday ko'chim turlarini o'z ijodida qo'llash orqali shoir va yozuvchilarimiz ularning eng go'zal, takrorlanmas va insonlar ruhiy olamini larzaga soluvchi na'munalarini hosil qilish orqali o'zining stilistik imkoniyatlarini ochib beradi. Buning yorqin ifodasini Xosiyat Rustamova ijodida ham uchratishimiz mumkin.

Shoira o'z lirikasida metaforalardan mohirona foydalangan va uning eng go'zal na'munalarini yaratgan:

Dunyo asta-sekin tushar muzidan,

Og'ochlar tushida ko'rar bargini,

Olib tashlamoqchi bo'lar ko'zidan,

Ariqlar dars ketgan ko'zoynagini.

Yuqorida keltirilgan shoiraning **"Yangi fasl"** nomli she'rining har bir misrasida metaforik birliklarni uchratishimiz mumkin. Ushbu birliklar orqali ijodkor zumrad qishning yurtimizni tark etishi va fasllar kelinchagi bo'lmish bahor faslining kirib kelishi kabi tabiat tasvirini o'z ijodida mohirona ifodalagan. **"Tushar muzidan"** metaforik birligi fe'l metafora (metaforalar morfologik jihatdan ot metafora va fe'l metaforalarga ajratiladi) hisoblanadi. Ushbu birlik uslubiy jihatdan qishning naqadar sovuq ekanligini ifodalash uchun qo'llanilgan. **"Ariqlar dars ketgan ko'zoynagini"** kabi metaforik birlik esa ot metafora bo'lib, stilistik jihatdan shoira ifodalamoqchi bo'lgan ma'noni aniq, tinglovchiga tushunarli shaklda aks ettirishga xizmat qilgan.

Badiiy adabiyotda metafora ko'pincha quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

1. **Estetik** – asar tilini boyitish, she'r sifatini oshirish.

Ko'kning biqinini teshib o'tar o'q,

O'rmalab yuradi askar bulutlar.

Qochib hech qayerga yashirinmas, yo'q,

Baridan ensasi qotgan bulutlar,

Bezrayib tog'u tosh kuzatar chetdan,

O'zini yo'qotib qo'ygan samovot,

Burgut changalida qiynalib ketgan,

Oyoqlari qonga belangan hayot.

Shoiraning **"Ko'kning biqinini teshib o'tar o'q"** nomli she'rida **"Ko'kning biqini, askar bulutlar, ensasi qotgan bulutlar, bezrayib tog'u tosh kuzatar chetdan, o'zini yo'qotib qo'ygan samovot, oyoqlari qonga belangan hayot"** kabi metaforik birliklar qo'llanilgan. Ularning har biri o'ziga xos estetik vazifa bajaradi.

2. **Hissiy** – muallifning kayfiyatini yoki bahosini yetkazish.

Chiqib ketdi bir kuni shiftga,

Mittigina jonini olib.

O'zi uchun qurdi to'r osmon,

O'zi uchun hozirladi yer.

Shuncha nafis bo'larmi kafan,

Shuncha go'zal bo'ladimi she'r.

Xosiyat Rustamovaning **"O'rgimchak"** nomli she'rda **"to'r osmon, nafis kafan"** singari takrorlanmas o'xshatishlarni uchratishimiz mumkin. Ushbu birliklar ana shu vaziyatga muallifning bahosini aks ettiradi. Bunda o'rgimchakning yerni tark etib, o'zi uchun shiftda vatan qurishi va anashu vatanida vafot etishi, ya'ni shu to'r osmoni uning uchun kafan vazifasini bajarishi tasviri go'zal tasvirlangan.

3. **Kognitiv** – tanish tushunchalar orqali murakkab yoki mavhum tushunchalarni tushunishga yordam berish.

Mayda baliqlar ham yashasin ozod,

Yutib yubormasin dengiz qurg'ur och,

Butun yer yuziga taralsin shula,

Dunyo katta-kichik baliqqa muhtoj.

Faqat timsohlar bor...

Bordir akula...

[*"Otilib boryapman..."* Bebosh bulutlar 117-b]

Ushbu bandda **"mayda baliqlar, dengiz qurg'ur och, katta-kichik baliqlar, akula, timsoh"** kabi metaforik o'xshatishlar orqali ijodkor murakkab tushunchalarni sodda jumlar orqali ifodalashga erisha olgan. **Katta-kichik baliqlar** iborasi atrofimizdagi yaxshi insonlarni ifodalashga, **timsoh va akula** so'zlari esa yirtqich suv hayvonlari hisoblanib, uslubiy jihatdan ularga xos bo'lgan harakter orqali jamiyatimizdagi anashunday xususiyatga ega bo'lgan insonlar aks ettirilgan.

Shoira ijodida bunday go'zal metaforik misollarni ko'plab uchratishimiz mumkin:

Bulutlar – osmonga tikilgan chodir.

Shamol - nasixtago'y,

Oy esa mergan.

[“Bulutlar” 184-b]

Ishkomda uzum yig'lar,

Tashlab qo'ymas nozini.

Anor tunni qo'rqitar,

Kappa ochib og'zini.

Olma o'zini osar,

Shamol turar elanib.

Yerda yotar gilolar,

O'z qoniga belanib.

[“Ishkomda uzum yig'lar” 152-b]

Boshim uzra g'amgin shamol,

Yomg'ir bilan tushar raqs.

U o'rtanib berar savol,

Yomg'ir unga berar dars.

Boshim yig'lar soyabonsiz,

Shamol yana urar do'q.

[“Hayot” 240-b]

Nur tusha boshladi.

Ko'k tuynugidan,

Qaddini ko'tardi Yerdan dalalar.

Boychechak jilmayib Chiqdi uyidan

Ko'chaga otilib chiqdi bolalar.

[“Bahor” 205-b]

Yam-yashil darxtnar ketdilar qurib,

Chilparchin bolgisi kelar qulfnig.

Tongning yig'lagisi kelar qichqirib,

Baqirgisi kelar temur eshikning.

[“Kun botar” 208-b]

Na ariq, na ko'prik o'tadi yo'ldan,

Bejavob qoldirar savollarini,

Bilmas u oqqushlar o'g'irlab qo'ygan,

Layli daraxtlarning hayollarini.

[“Bir kun ishq yo'lida Majnun bo'lar tol” 12-b]

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki shoira Xosiyat Rustamova metaforaning betakror na'munalarini yarata olgan qalami o'tkir ijodkordir. Har bir metafora o'ziga xos lingvostilislik vazifa bajargan. Ular she'rning ekspressivligini, emotsionalligini, ta'sir kuchini oshirishga, ijodkor nechog'lik mahorat sohibasi ekanligini ochib berishga, she'riyat ixlosmandlari qalbini larzaga solishga, ularni chuqur o'yga toldirishga hizmat qilgan.

Xulosa

Demak, Xosiyat Rustamova o'z lirikasida lingvistik birliklarning stilistik imkoniyatlarini ochib berish orqali kitobxonning xis-tuyg'ularini ifodalash, unda estetik zavq uyg'otishga erisha olgan, o'z uslubiga ega, qalami o'tkir ijodkorlardan biridir. Buni biz o'z maqolamizda metaforalarning lingvostilislik imkoniyatlarini atroflicha tahlil qilish orqali guvohi bo'ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Axmanova O.C. Словарь лингвистических терминов. – М., 1961, с.231.
- [2]. O'zME.Birinchi jild.Toshkent,2000-yil
- [3]. Кожина М.Н. Стилистика русского языка, с.95.
- [4]. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – Toshkent. “Fan” nashryoti. – B,22.
- [5]. A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent, “O'zbekiston milliy ensklopediyasi” davlat ilmiy nashryoti. – B:63.
- [6]. Xosiyat Rustamova. Bebo'sh bulutlar. Toshkent. “O'zbekiston” nashryoti. 2019.